

# YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI

## ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

### REVIEW OF LAW SCIENCES



huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

правовой научно-практический журнал

legal scientific-practical journal

2023-yil 2-son

VOLUME 7 / ISSUE 2 / 2023

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2023.7.2.

ISSN 2181-919X

E-ISSN 2181-1148

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS



**Crossref**  
Content  
Registration

# MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ  
NAZARIYASI VA TARIXI.  
HUQUQIY TA'LIMOTLAR  
TARIXI

- 6 **KARAHOДЖАЕВА ДИЛОРОМ  
МАМИРОВНА**  
А.И. Ишанов – выдающийся узбекский  
ученый-государствовед

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY  
HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ.  
MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 13 **ТУЛЬТЕЕВ ИЛЬЯС ТАВАСОВИЧ**  
Конституционализм и наука конституционного  
права: некоторые задачи и перспективы  
развития
- 24 **YULDOSHBEKOV AVAZBEK  
ALISHER O'G'LI**  
**QODIROVA DILDORA IRKINOVNA**  
Xorijiy investitsiya tushunchasining  
nazariy-huquqiy jihatlar

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI.  
TADBIRKORLIK HUQUQI.  
OILA HUQUQI.  
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 30 **XODJAYEV BAXSHILLO KAMOLOVICH**  
Intellectual mulk huquqini boshqarish va  
texnologiyalar transferini davlat tomonidan  
qo'llab-quvvatlashning tashkiliy-huquqiy  
masalalari
- 38 **XO'JAYEV SHOXJAXON AKMALJON O'G'LI**  
Ijtimoiy tarmoqlarda mualliflik huquqini himoya  
qilishning o'ziga xos jihatlar
- 49 **SAYDIVALIYEVA XURSHIDA  
XODJIAKBAROVNA**  
Xorijiy davlatlarda oilaviy munosabatlarni  
tartibga solishning o'ziga xos jihatlar va  
oilaviy-huquqiy shartnomalar

- 61 **МУРОДЖОНОВА МОХИРАХОН  
МАКСУДЖОН КИЗИ**

**ИМАМОВА ДИЛФУЗА ИСМАИЛОВНА**

Понятие международного договора  
строительного подряда

- 70 **USMONOVA MUNISXON YO‘LDOSH QIZI**

Muomala layoqatidagi nuqsonlar va uni  
aniqlashdagi muammolar

- 81 **ASADOV SHAHRIDDIN FAKHRIDDIN UGLI**

Legal regulation of consulting services

12.00.06 – TABIIY RESURLAR  
HUQUQI.

AGRAR HUQUQ.

EKOLOGIK HUQUQ

- 90 **RAJABOV NARIMAN SHARIFBAYEVICH**

O‘zbekistonda vodorod energetikasi sohasi  
qonunchiligini takomillashtirishning ayrim  
masalalari

- 97 **ХАЙИТОВ ПАНЖИ БУХАРОВИЧ**

Роль и значение объектов и субъектов  
в энергетической безопасности

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI.  
HUQUQBUZARLIKLARNING

OLDINI OLISH.

KRIMINOLOGIYA.

JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 106 **ISLOMOV BUNYOD OCHILOVICH**

Janubiy Afrika Respublikasi jinoyat  
qonunchiligida jazoni yengillashtirish instituti

12.00.09 – JINOYAT  
PROTSESSI. KRIMINALISTIKA,

TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA

SUD EKSPERTIZASI

- 122 **UMARXONOV AZIZXON  
SHARIPXONOVICH**

Sud bosqichlarida jinoyat protsessi  
ishtirokchilarining xavfsizligini ta’minlash  
asoslari

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.rols.2023.7.2./LHV03632>  
UDC: 343.126(045)(575.1)

## UY QAMOG'I TARZIDAGI EHTIYOT CHORASI TANLANGAN SHAXSGA NISBATAN O'RNATILISHI MUMKIN BO'LGAN TAQIQ (CHEKLOV)LARNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI

**Abdullayev Diyor Ibodillayevich,**  
TDYU kadrlar bo'limi bosh mutaxassisi  
TDYU mustaqil izlanuvchisi  
ORCID: 0000-0001-9557-6309  
e-mail: [abdullayev\\_diyor@internet.ru](mailto:abdullayev_diyor@internet.ru)

**Annotatsiya.** Jinoyat-protsessual qonunchilikka ko'ra, uy qamog'i gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchiga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini tanlash uchun asoslar mavjud bo'lganida uning yoshi, sog'lig'i, oilaviy ahvoli va boshqa holatlarni hisobga olgan holda qamoqqa olish maqsadga nomuvofiq deb topilgan taqdirda qo'llanadi va bunda shaxsga nisbatan qonunda nazarda tutilgan ma'lum bir taqiq (cheklov)lar o'rnatiladi. Mazkur maqolada muallif tomonidan jinoyat-protsessual ehtiyot chorasini sifatida uy qamog'i tanlangan shaxsga nisbatan o'rnatilishi mumkin bo'lgan taqiq (cheklov)lar tushunchasi, ularning turlari, qo'llash tartibi hamda mazmun-mohiyatining ilmiy-nazariy jihatlari xorijiy mutaxassislar va mahalliy tadqiqotchilar fikrlarini qiyosiy tahlil qilish orqali atroflicha yoritilgan. Shuningdek, maqolada xorijiy hamda milliy qonunchilik va qonunosti normalari asosida uy qamog'i ehtiyot chorasini tayinlangan shaxsga nisbatan qo'llangan taqiq (cheklov)lar bilan bog'liq huquqni qo'llash amaliyotida yuzaga kelgan va amaliyotchi huquqshunoslarning o'rtasida bahsmunozara keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan muammolar haqida so'z yuritilib, ularni bartaraf etish bo'yicha xulosa va takliflar berilgan.

**Kalit so'zlar:** jinoyat protsessi, ehtiyot choralari, uy qamog'i, taqiqlar (cheklovlar).

### НАУЧНЫЕ И ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЗАПРЕТОВ (ОГРАНИЧЕНИЙ), КОТОРЫЕ МОГУТ БЫТЬ УСТАНОВЛЕНЫ ДЛЯ ВЫБРАННОГО ЛИЦА ПРИ ДОМАШНЕМ АРЕСТЕ

**Абдуллаев Диор Ибодиллаевич,**  
главный специалист отдела кадров,  
самостоятельный соискатель Ташкентского  
государственного юридического университета

**Аннотация.** Согласно уголовно-процессуальному законодательству, домашний арест применяется к подозреваемому, обвиняемому или подсудимому при наличии оснований для избрания такой меры пресечения с учетом его возраста, состояния здоровья, семейного положения и других обстоятельств, каждое заключение под стражу признано нецелесообразным и при этом в отношении лица устанавливается определенный запрет (ограничение), предусмотренный законом. В настоящей статье автором представлены научно-теоретические аспекты понятия запретов (ограничений), которые могут быть установлены в отношении лица, которому избран домашний арест в качестве уголовно-процессуальной меры пресечения, подробно освещены виды, порядок применения и содержание этих понятий с

учетом проведенного анализа сравнения мнений зарубежных специалистов и отечественных исследователей. Кроме того, в статье, основываясь на зарубежном и национальном законодательстве и правовых нормах, обсуждаются запреты (ограничения), применяемые к лицу, помещенному под домашний арест, которые возникли в практике правоприменения и вызвали споры среди практикующих юристов, а также даются выводы и предложения по устранению возможных проблем.

**Ключевые слова:** уголовный процесс, меры пресечения, домашний арест, запреты (ограничения).

## SCIENTIFIC AND THEORETICAL ASPECTS OF PROHIBITIONS (LIMITATIONS) THAT CAN BE ESTABLISHED FOR THE CHOSEN PERSON IN THE STYLE OF HOUSE ARRESTS

**Abdullayev Dior Ibodillayevich,**

Chief specialist of TDYU personnel department  
TDYU independent researcher

**Abstract.** According to the criminal procedural law, house arrest should be taken into account when there are grounds for choosing a preventive measure in the form of detention against a suspect, accused, or defendant, taking into account his age, state of health, family situation, and other circumstances. applied in cases of non-conformity, and certain prohibitions (restrictions) provided for by the law are established against the person. In this article, the concept of prohibitions (restrictions) that can be imposed by the author on a person selected as a criminal-procedural precaution, their types, application procedure, and scientific-theoretical aspects of their content are presented by foreign experts and local It is covered in detail through a comparative analysis of researchers' opinions. Moreover, in the article, on the basis of foreign and national legislation and legal norms, the prohibitions (restrictions) applied to the person who was placed under house arrest, which arose in the practice of law enforcement and caused controversy among practicing lawyers possible problems are discussed, and conclusions and suggestions for their elimination are given.

**Keywords:** criminal procedure, precautionary measures, house arrest, prohibitions (restrictions).

### Kirish

Insonning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo'yilgan huquq va erkinliklari daxlsizdir hamda ulardan sud qarorisiz mahrum etishga yoki ularni cheklab qo'yishga hech kim haqli emas.

Davlat organlari tomonidan insonga nisbatan qo'llanadigan huquqiy ta'sir choralarlari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo'lishi kerak.

Shu o'rinda ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'i qo'llanayotgan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchiga nisbatan o'rnatilishi mumkin bo'lgan taqiq (cheklov)lar turi va qo'llanish doirasiga e'tibor qaratsak.

### Material va metodlar

Mazkur ilmiy maqolani tayyorlashda ilmiy bilishning mantiqiy va ilmiy uslublari-

dan foydalanilgan, xususan, mantiqiy tahlil, tarixiy, qiyosiy-huquqiy, induksiya, deduksiya, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish kabi uslublarni qo'llangan. Bundan tashqari, xorijiy davlatlar qonunchiligi va amaliyoti tahlil qilindi.

### Tadqiqot natijalari

Fikrimizcha, shaxsga nisbatan o'rnatilishi mumkin bo'lgan taqiq (cheklov) uning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini erkin amalga oshirishiga monelik qiluvchi hamda rioya etmaslik muayyan yuridik oqibat tug'diruvchi protsessual talablardir.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 242<sup>1</sup>-moddasi 5-qismiga muvofiq, sud gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining shaxsini va haqiqiy holatlarni hisobga olgan holda ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'ini tanlash jarayonida unga

nisbatan quyidagi taqiqlar (cheklovlar)ni belgilashi mumkin:

- 1) muayyan shaxslar bilan aloqada bo'lish;
- 2) xat-xabar olish va jo'natish;
- 3) har qanday aloqa vositalaridan foydalanish va ular yordamida so'zlashuvlar olib borish;
- 4) uy-joyini tark etish.

Demak, jinoyat-protsessual qonunchiligimizda sanab o'tilgan choralarning qaysi biri taqiqlash, qaysi biri cheklash sifatida qo'llanishi kerakligi aniq belgilanmagan, ya'ni taqiqlar va cheklovlar sifatida toifalanmagan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo ba'zi mamlakatlar, jumladan, Tojikiston Jinoyat-protsessual kodeksining [1] 110-moddasida, Ukraina Jinoyat-protsessual kodeksining [2] 181-moddasida va Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual kodeksining 107-moddasida uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasi tanlangan shaxsga nisbatan o'rnatilishi mumkin bo'lgan taqiq (cheklov)larning bayon etilish tartibi (ketma-ketligi)dagina farq bo'lib, ularning turi va mazmun-mohiyati deyarli bir xil (shu boisdan tadqiqot jarayonida xorijlik mutaxassis olimlar va amaliyotchilar fikrlaridan keng foydalanildi), bunga sabab esa MDH Parlamentlararo Assambleyasi 1996-yil 17-fevralda tasdiqlagan Jinoyat-protsessual kodeksi modelida [3] aks ettirilgan tavsiyalardan foydalanilganligida deb bilamiz. Uning 175-moddasida uy qamog'i qo'llangan shaxsning zimmasiga:

uyidan muttasil yoki muayyan vaqtlarda chiqib ketmaslik;

telefonda so'zlashmaslik, aloqa vositalaridan foydalanmaslik, xat-yozishmalar yubormaslik;

uyda o'rnatilgan maxsus elektron nazorat vositalarining kuzatuvida bo'lish va ularning soz holda ishlashini ta'minlash;

nazorat tartibida telefon orqali chaqirganda javob berish yoxud muayyan vaqtlarda telefonda o'zi to'g'risida xabar berib turish;

ayblanuvchini yoki uning uy-joyini kuzatish, uyini yoxud unga ajratilgan xonani qo'riqlab turish;

ayblanuvchining jamiyat bilan aloqasini cheklash yoki uning xulq-atvorini kuzatishga qaratilgan boshqa choralarni ko'rish kabi majburiyatlar yuklatilishi nazarda tutilgan [4].

Tadqiqot doirasida o'rganilgan jinoyat-protsessual adabiyotlarda ham qayd etilishi-cha, qonunda sanab o'tilgan choralarning qaysi biri taqiqlash, qaysi biri cheklash sifatida kvalifikatsiya qilinishi kerakligi ko'rsatilmagan. Ko'rinib turibdiki, taqiq deganda har qanday harakat yoki faoliyatni to'liq taqiqlash, uning sodir etilishiga yo'l qo'ymaslik tushuniladi, cheklov deganda esa bir xil harakatlar yoxud faoliyatni qisman taqiqlash tushuniladi[5].

S.V. Koloskov va L.M. Fetishevaning fikricha, huquqiy oqibatlari va qo'llashning huquqiy rejimi nuqtayi nazaridan qonun taqiqlar va cheklovlarni ajratmaydi[6].

E.V. Saltikovning yozishicha, uy qamog'i bilan bog'liq holda cheklash va taqiqlarning mohiyati bir-biriga juda yaqin yoki (hatto) ayrim hollarda bir muddatga birlashadi, bundan tashqari, bu alohida uchinchi holat emas, balki qonunchilar mantig'iga ko'ra, taqiq cheklovlarning bir qismiga aylanadi [7].

Bir qator tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, uy qamog'ini qo'llashda qonun faqat bitta cheklovni nazarda tutadi – gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi yashaydigan turar joydan tashqariga chiqish (Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual kodeksining 107-moddasi 7-qismi 1-band) va uch turdagi taqiqlar (shu moddaning 2-4-bandlari) [8].

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 242<sup>1</sup>-moddasi 6-qismiga muvofiq, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi barcha taqiqlarga (cheklovlar-ga) yoxud ulardan ayrimlariga duchor etilishi mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, vakolatli mansabdor shaxs ehtiyot chorasi sifatida



uy qamog'ini tanlayotgan vaqtda ayblanuvchi (gumon qilinuvchi) yoxud sudlanuvchiga uy qamog'ida bo'lgan vaqtda o'rnatiladigan taqiqlar doirasini belgilashda jinoyat ishining mavjud asosli materiallariga muvofiq, ularning miqdorini, ya'ni qo'llanish doirasini ixtiyoriy ravishda belgilaydi. Har bir taqiq (cheklov)ning mazmun-mohiyatiga to'xtaladigan bo'lsak, bunda muayyan shaxslar bilan aloqada bo'lishga taqiq (cheklov) o'rnatish, ya'ni uy qamog'ida bo'lgan shaxsning muloqot erkinligini cheklash deganda, professor G. To'laganovning fikrlariga ko'ra, quyidagi holatlar nazarda tutiladi: a) ma'lum shaxslar bilan (himoyachidan tashqari) og'zaki muloqot qilish (gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, jabrlanuvchilar va ularning vakillari, guvohlar, ekspertlar, xolilar, ish yuritishga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan hamkasblari, tanishlari va boshqalar); b) yozma muloqot vositalarini (xat-xabarlar, jo'natmalar, telegrammalar) jo'natish va olish; v) har qanday aloqa vositalari orqali muloqot qilish (internet, elektron pochta, telefon, teletayp, faks va hokazolar) [9].

A.S. Aleksandrovning so'zlariga ko'ra, "muayyan shaxslar bilan muloqot" iborasini qonun chiqaruvchi hibsga olingan shaxsning jamiyatdan to'liq ajratilishi va tashqi dunyo bilan aloqa qilishini mutlaqo taqiqlashni nazarda tutmagan [10].

Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual kodeksining 107-moddasida nazarda tutilgan ushbu taqiq turini L.V. Diakonova og'zaki muloqotga taqiq bilan bir qatorda yozma muloqotga (xuddi shu moddaning 7-qismining 3-bandi) va aloqa vositalari va Internet tarmog'i yordamida aloqaga taqiq deb ataydi (xuddi shu moddaning 7-qismining 4-bandi) [11].

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi uchun muloqot qilish taqiqlangan shaxslar doirasi sudlar tomonidan, birinchi navbatda, ushbu jinoyat ishining materiallariga asoslanib va uni obyektiv tergov qilish manfaatlaridan kelib chiqqan holda hal

qilinishi kerak. Muloqot masalalari bo'yicha aynan sud qaror qabul qilishi muhimdir, chunki bunday taqiq nafaqat uy qamog'ida bo'lgan shaxsning muloqot qilish huquqini, balki u bilan muloqot taqiqlanishi mumkin bo'lgan shaxslarning ham muloqot qilish huquqi cheklanishini anglatadi. Sudlar muayyan shaxslar bilan aloqada bo'lishga taqiq (cheklov) belgilayotgan vaqtda bundan mustasno shaxslarni o'z ajrimida aniq sanab o'tishlari maqsadga muvofiqdir. Misol uchun, ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'i tanlangan shaxsning yaqin qarindoshlari; ushbu ehtiyot chorasining bajarilishini nazorat qiluvchi organlar vakillari; jinoyat ishini tergov qilayotgan boshqa huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari va tergovchilari; ayblanuvchi huquqlari va manfaatlarini himoya qilayotgan advokatlar; tez tibbiy yordam xodimlari, ayblanuvchiga tibbiy yordam berayotgan va davolayotgan tibbiyot xodimlari; huquqni muhofaza qilish organlari, agar ular o'z vazifalarini bajarayotgan bo'lsa; favqulodda vaziyatlar yuzaga kelgan taqdirda favqulodda vaziyatlar xodimlari.

Fikrimizcha, muayyan shaxslar bilan aloqada bo'lishga taqiq (cheklov) o'rnatish deganda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining ish bo'yicha haqiqatni aniqlashga xalal beradigan urinishlariga yo'l qo'ymaslik maqsadida ish holatlaridan kelib chiqib, shu ishning boshqa ishtirokchilari va shu kabi boshqa shaxslar bilan bevosita va bilvosita uchrashish va gaplashishga, har qanday tarzda yozishmalarni amalga oshirishga taqiq (cheklov) qo'yilishini tushunish mumkin.

Xat-xabar olish va jo'natishga taqiq (cheklov) o'rnatish deganda esa gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining har qanday xat-xabarni, ya'ni pochta-telegraf, faks orqali jo'natmalarni, o'zaro xat yozishmalarini, shuningdek, zamonaviy elektron muloqot vositalari bo'lmish e-mail, SMS, MMS, telegramm, whats up, odnoklasnik, instagram va boshqa elektron shakldagi xabarlarni qa-

bul qilishiga yoki jo'natishiga taqiq (cheklov) qo'yilishi tushuniladi.

Tadqiqot doirasida o'rganilgan aksariyat sud ajrimlarida bu taqiq O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 242<sup>1</sup>-moddasi 5-qismi 2-bandiga asosan ko'rsatilgan va aynan kimlar bilan xat-xabar olish va jo'natish taqiqlanganligi aniqlanmagan. Qonun bunday shaxslarning aniq ko'rsatilishini talab qilmaydi. Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, sud tomonidan uy qamog'i ehtiyot chorasi tayinlanayotgan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchiga har qanday shaxs bilan yozma muloqot qilish taqiqlanishi mumkin, buni esa to'g'ri deb hisoblamaymiz.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 242<sup>1</sup>-moddasi 5-qismi 2-bandidagi taqiq (cheklov) qoidalarini amalga oshirishda kamida ikkita murakkab muammo yuzaga keladi.

Birinchidan, xat-xabar olish va jo'natish (pochta-telegraf yozishmalariga) huquqidan to'liq mahrum etish hatto hibsdan saqlanayotgan gumon qilinuvchi va ayblanuvchilar uchun ham nazarda tutilmagan. Bunday shaxslarning yozishma va yozma materiallardan foydalanish huquqi O'zbekiston Respublikasining 2011-yil 29-sentabrdagi O'RQ-298-son "Jinoyat ishini yuritish chog'ida qamoqda saqlash to'g'risida"gi Qonuni 18-moddasi 1-qismining 4-xatboshisida belgilangan. Ushbu qonunning 20-moddasida quyidagi tartib ko'rsatilgan: "Ushlab turilganlar va qamoqqa olinganlar qarindoshlari hamda boshqa shaxslar bilan yozishmalar olib borish huquqiga ega. Ushlab turilganning, qamoqqa olinganning yozishmalari qamoqda saqlash joyining ma'muriyati orqali amalga oshiriladi hamda senzura o'tkaziladi. Senzura qamoqda saqlash joyining ma'muriyati tomonidan, zarur bo'lgan taqdirda esa jinoyat ishini yuritayotgan mansabdor shaxs yoki organ tomonidan amalga oshiriladi. Ushlab turilganning, qamoqqa olinganning jinoyat ishi bo'yicha haqiqatni aniqlashga to'sqinlik

qilishi yoxud jinoyat sodir etilishiga ko'maklashishi mumkin bo'lgan ma'lumotlar ko'rsatilgan, maxfiy yozuv, belgilar bilan yozilgan, davlat sirini yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni o'z ichiga olgan xat-xabari adresatga jo'natilmaydi, ushlab turilganlar va qamoqqa olinganlarga berilmaydi hamda jinoyat ishini yuritayotgan mansabdor shaxs yoki organga topshiriladi. Bu haqda prokuror yozma ravishda xabardor qilinadi. Ushlab turilganning yoki qamoqqa olinganning yaqin qarindoshi vafot etganligi, og'ir kasalligi, ushlab turilganning yoki qamoqqa olinganning oilasi yoxud yaqin qarindoshlariga moddiy zarar yetkazgan tabiiy ofat haqidagi ma'lumotlar, shuningdek, boshqa shunga o'xshash ma'lumotlar olinganidan keyin darhol adresatga ma'lum qilinadi. Turli qamoqda saqlash joylaridagi ushlab turilganlar, qamoqqa olinganlar o'rtasidagi yoki ushlab turilganlar, qamoqqa olinganlarning ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan mahkumlar bilan yozishmalari faqat qarindoshlar o'rtasida amalga oshirilishi mumkin.

Bizning fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 242<sup>1</sup>-moddasi 5-qismi 2-bandi "muayyan shaxslardan xat-xabar olish va jo'natish" tarzida bayon etilishi maqsadga muvofiq, bundan asosiy maqsad uy qamog'ida saqlanayotgan shaxs ham xuddi ushlab turilgan yoki qamoqqa olingan shaxs kabi nazorat ostida, senzura o'tkazilgan holatda bo'lsa-da, sud ajrimi bilan taqiqlanmagan ma'lum bir shaxslar (ota-onasi yoxud boshqa yaqinlari) bilan yozishmalar amalga oshirish huquqini ham shakllantirishdir.

Ikkinchidan, amaldagi jinoyat-protsessual qonunchiligimizda sud tomonidan qo'yilgan cheklovlar va taqiqlarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishda xat-xabar olish va jo'natish yozishmalari tekshirish hamda olib qo'yish imkoniyati ko'zda tutilmagan. Bizning fikrimizcha, bunday nazoratni kim va qanday tartibda amalga oshirishi bilan bog'liq qoidalar O'zbekiston Respublikasi-



ning 2011-yilning 29-sentabrdagi O'RQ-298-son "Jinoyat ishini yuritish chog'ida qamoqda saqlash to'g'risida"gi Qonuni yoxud bevosita jinoyat-protsessual kodeksimizda belgilanishi kerak.

Har qanday aloqa vositalaridan foydalanish va ular yordamida so'zlashuvlar olib borishga taqiq (cheklov) o'rnatish deyilganda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining bevosita yoki bilvosita aloqa vositalari orqali so'zlashuvlarni, pochta-telegraf, faks jo'natmalarini, shuningdek, e-mail, SMS, MMS va shu kabi boshqa elektron shakldagi yozishmalarni amalga oshirishiga to'liq taqiq (cheklov) o'rnatish tushuniladi.

Xususan, ushbu taqiqning amalga oshirilishi telefon va boshqa suhbatlarni, abonentlar va abonent qurilmalari o'rtasidagi ulanishlar to'g'risida olingan ma'lumotlarni kuzatish hamda qayd etish muammosini keltirib chiqaradi. Jinoyat-protsessual kodeksining tergov shartlari sud tomonidan qo'yilgan ushbu cheklovlar va taqiqlarga rioya etilishini nazorat qilishni nazarda tutmaydi. Bu masala hatto uy qamog'i ehtiyot chorasi ijrosi bilan bog'liq tartib-qoidalar belgilangan O'zbekiston Respublikasi IIVning 2014-yil 11-noyabrdagi 162-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash tartibi to'g'risidagi yo'riqnomada ham ko'rsatilmagan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 242<sup>1</sup>-moddasi 7-qismiga ko'ra, "Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi himoyachi, qonuniy vakil, belgilangan taqiqlarga (cheklovlarga) rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish vazifasi zimmasiga yuklatilgan organ, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud bilan so'zlashish uchun, shuningdek, zaruriyat yuzaga kelgan taqdirda huquqni muhofaza qiluvchi organlarni, tez tibbiy yordamni, yong'in xavfsizligi xizmatini, qutqaruv xizmatini va boshqa shoshilinch xizmatlarni chaqirish uchun telefon aloqasidan foydalanish huquqidan

cheklanishi mumkin emas. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'z yashash joyidagi uy qamog'ini ijro etish zimmasiga yuklatilgan ichki ishlar organiga har bir shunday qo'ng'iroq haqida xabar beradi". Biroq ta'kidlash joizki, har qanday aloqa vositalaridan foydalanish va ular yordamida so'zlashuvlar olib borishga taqiq (cheklov) ustidan nazorat olib borish tartibi ko'rsatilmagan.

Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, ushbu taqiqni nazorat qilish imkonsizdir.

Xususan, Y. Axminova Rossiya Federatsiyasi Oliy sudi Plenumining 2013-yil 19-dekabrdagi 41-sonli qarori 40-bandining beshinchi xatboshisida ko'rsatilgandek, Internet-axborot va telekommunikatsiya tarmog'idan foydalanishda gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchini cheklashda, sud shaxsga ushbu tarmoqdan foydalanishga ruxsat berilgan holatlarni ko'rsatishi kerak (masalan, shaxs va ta'lim muassasasi o'rtasida ma'lumot almashish, agar gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi ushbu muassasaning talabasi bo'lsa).

Texnik nuqtayi nazardan ushbu sud tushuntirishini amalga oshirish deyarli ilojisiz. Xuddi shunday zamonaviy sharoitda, umuman olganda, Internet axborot-telekommunikatsiya tarmog'idan foydalanish taqiqiga rioya etishni nazorat qilish deyarli mumkin emas [12], deya ta'kidlagan tadqiqotchi Y. Axminova.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 242<sup>1</sup>-moddasi 5-qismiga 4-bandida nazarda tutilgan uy-joyini tark etish, ya'ni gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi yashaydigan turar joydan tashqariga chiqishiga chek qo'yish aslida ham taqiqni, ham cheklashni o'z ichiga olishi mumkin.

Ayrim xorijlik mutaxassis olimlar (O.I. Tsokolova, G.V. Kostyleva, N.E. Muzhenskaya va S.I. Danilov [13]) tomonidan qayd etilganidek, uy qamog'i ehtiyot chorasi tanlangan shaxs doimiy uyda bo'lganida ikkita asosiy muammo yuzaga chiqadi, birinchi-

si toza havoda bo'lish, ikkinchisi oziq-ovqat bilan ta'minlanishi bilan bog'liq. Yurishlarga (toza havoda sayr) kelsak, bu muammo uy qamog'i ehtiyot chorasi qo'llangan shaxs shahar sharoitidagi kvartirada yoki xonada yashaganda paydo bo'ladi, shuning uchun kamida bir soat davom etadigan nazorat ostida uy qamog'i ehtiyot chorasi qo'llangan shaxsning har kuni yurishlarini tashkil qilish kerak. Oziq-ovqat bilan ta'minlashga kelsak, agar ayblanuvchi yolg'iz yashasa, sayr paytida unga do'konga tashrif buyurish va oziq-ovqat sotib olish imkoniyati berilishi yoki ixtisoslashtirilgan savdo tashkilotlari tomonidan oziq-ovqat va boshqa ehtiyojlar yetkazib berilishini ta'minlashi mumkin. Bunday hollarda to'lov uy qamog'i ehtiyot chorasi qo'llangan shaxsning hisobidan amalga oshiriladi.

Uy qamog'i qamoqqa olishdan ko'ra unchalik og'ir bo'lmagan ehtiyot chorasi hisoblanadi, shuning uchun "uy qamog'i"ni yurish huquqidan mahrum qilish adolatsizlik bo'ladi.

Bizningcha, sudlar tomonidan uy qamog'i paytida yurish (sayr qilish) huquqi ta'minlanishi majburiy bo'lishi kerak. Shuni ta'kidlash kerakki, kamida bir soat davom etadigan har kungi sayr etishdan foydalanish huquqi ushlab turilgan va (yoki) qamoqqa olingan gumon qilinuvchi va ayblanuvchilarga tegishlidir (O'zbekiston Respublikasining 2011-yil 29-sentabrdagi O'RQ-298-son "Jinoyat ishini yuritish chog'ida qamoqda saqlash to'g'risida"gi Qonuni 18-moddasi 1-qismi 12-xatboshisi).

G. To'laganova uy qamog'i ehtiyot chorasining boshqa ehtiyot choralaridan farqli jihatlari haqida so'z yuritib, o'z fikrlarini shunday qayd etadi: "Ushbu ehtiyot chorasining harakatlanish erkinligini cheklash darajasi munosib xulq-atvorda bo'lish haqidagi tilxatga qaraganda ko'proq. Ayni shu paytda uy qamog'ida ayblanuvchi yopiq turdagi maxsus ajratilgan xonaga majburan qamab qo'yilmaydi, o'zi bilan birga yashaydigan shaxslardan, oilasidan ajratilmaydi" [4].

Fikrimizcha, uy-joyini tark etishga taqiq (cheklov) o'rnatish deganda shaxsni uy qamog'i ehtiyot chorasini o'tash joyidan chiqishga sud ajrimi bilan to'liq yoki qisman taqiq (cheklov) o'rnatish tushuniladi. Bunday hollarda, ya'ni qisman taqiq (cheklov) o'rnatilganda, sud tomonidan uy qamog'i qo'llangan shaxsning o'qish yoki ish joyiga borishiga yoxud kundalik oila turmush masalalarini hal etishi uchun kunning ma'lum paytlarida uy qamog'i qo'llangan joydan tashqariga chiqishga ruxsat berilishi mumkin. Qamoqqa olinganning yashash joyi qo'riqlanishi mumkin. Zarur hollarda uning xulq-atvori ustidan nazorat o'rnatiladi. Gumon qilinuvchining, ayblanuvchining yoki sudlanuvchining uy-joyidan chiqishi bo'yicha o'rnatilgan taqiqlarga (cheklovlarga) rioya etishi ustidan nazorat amalga oshirilayotganda ichki ishlar organi uning yashash joyida bo'lishini sutkaning istalgan vaqtida tekshirishga haqli. Tekshirish kunduzgi vaqtda ko'pi bilan bir marta va tungi vaqtda ko'pi bilan bir marta o'tkaziladi. Zarur hollarda uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llangan shaxsga nisbatan elektron kuzatish vositalari qo'llanishi mumkin.

Agar tibbiy ko'rsatuvlarga ko'ra gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi sog'liqni saqlash muassasasiga olib kelingan va yotqizilgan bo'lsa, sud o'rnatgan taqiqlarning (cheklovlarning) amal qilishi gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga yoki sudlanuvchiga nisbatan ehtiyot chorasini o'zgartirish yoxud bekor qilish masalasi sud tomonidan hal etilguniga qadar davom etadi. O'rnatilgan taqiqlar (cheklovlar) uy qamog'ida bo'lgan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi tomonidan buzilgan taqdirda unga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llanishi mumkin.

#### **Tadqiqot natijalari tahlili**

Jinoyat-protsessual adabiyotlarda uy qamog'i ehtiyot chorasi qo'llangan shaxsning yashash joyini tark etishi borasida mutlaqo qarama-qarshi fikrlar bildirilgan.

Xususan, L.K. Trunova uy qamog'idagi gumon qilinuvchi, ayblanuvchiga ish, o'qish, tibbiy muassasalar va boshqa joylarga borishga ruxsat berilishi kerak, deb fikr bildirgan [15].

V.M. Bykovning fikricha, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi sud qarori bilan imtihon yoki test topshirish uchun ta'lim muassasasiga, do'kon yoki dorixonaga tashrif buyurishi mumkin, ammo har qanday ko'ngilochar muassasalarga: kafe, kinoteatr, diskotekaga va boshqalarga tashrif buyurishni butunlay istisno qiladi [16].

Shu bilan birga, B.B. Bulatovning fikricha, uy qamog'i erkin harakatlanish imkoniyatini anglatmasligi kerak. Agar gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga har kuni ishga, o'qishga, boshqa joylarga borishga ruxsat berilsa, psixologik va ma'naviy jihatdan o'zini hibsga olingan deb hisoblamaydi [17].

R.Z. Shamsutdinovanning yozishicha, uy qamog'i hibsga (qamoqqa) olish bilan bog'liq bo'lgan cheklovlarni o'z ichiga olishi kerak, yagona farqi – uyda ushlab turish. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchiga ish, o'qish yoki boshqa joylarga borish uchun turar joydan chiqib ketish imkoniyati berilmasligi kerak. Shu bois u Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual kodeksining 107-moddasida uy qamog'i gumon qilinuvchi, ayblanuvchini jamiyattan to'liq ajratgan holda turar joy binosida saqlashni anglatishi nazarda tutilishini taklif qilgan [18].

Jinoyat-protsessual qonunining so'zma-so'z talqiniga asoslanib, sud gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchiga O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 242<sup>1</sup>-moddasi 5-qismida nazarda tutilmagan taqiqlar (cheklovlar) ni belgilashga haqli emas. Xuddi shunday, boshqa biron-bir majburiyat yuklashi ham mumkin emas. Faqatgina gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'z yashash joyidagi uy qamog'ini ijro etish zimmasiga yuklatilgan ichki ishlar organiga, zaruriyatga ko'ra (kasalligi, favqulodda holat va

h.k.), amalga oshirgan qo'ng'iroqlar haqida xabar berish majburiyatigina qo'llanishi mumkin.

Ayrim xorijiy jinoyat-protsessual adabiyotlarda taqiqlar ro'yxatini kengaytirish bo'yicha takliflar mavjud.

Masalan, Y.G. Ovchinnikov Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual kodeksining 107-moddasi 1-qismida belgilangan taqiqlar ro'yxati bilan cheklanib qolmaslik kerak deb hisoblaydi. Uning fikricha, Jinoyat-protsessual kodeksida quyidagi taqiqlar nazarda tutilishi kerak: uydan umumiy yoki ma'lum bir vaqtda chiqish, har qanday shaxslarni o'z uyida qabul qilish, maxsus ajratilgan joylarga (diskoteka, tungi klublar, restoranlar va boshqalar) borish [9].

R.M. Murtazin cheklash va taqiqlardan tashqari uy qamog'ida bo'lgan shaxsga quyidagi vazifalarni yuklashni taklif qiladi: elektron boshqaruvni ish holatida saqlash, nazorat signaliga javob berish yoki nazorat telefon signallarini berish, jinoiy ta'qibga belgilangan vaqtda hokimiyatga yoki sudga shaxsan kelish [20].

V.V. Klimov Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual kodeksining 107-moddasi 7-qismiga 5-bandni to'ldirishni taklif qiladi va "boshqa taqiqlar" degan ibora ko'rsatilishini lozim topadi. Bu taklif biz uchun nomaqbuldek tuyiladi, bu sud o'z-boshimchaliklariga olib kelishi mumkin [20].

### Xulosalar

Amalga oshirilgan tadqiqotga tayanib quyidagi xulosalar va ular asosida takliflar berishimiz mumkin:

1. Uy qamog'i qamoqqa olishdan ko'ra unchalik og'ir bo'lmagan ehtiyot chorasi hisoblanadi, shuning uchun uy qamog'idagi shaxsni yurish huquqidan mahrum qilish adolatsizlik bo'ladi. Bizningcha, sudlar tomonidan uy qamog'i paytida yurish (sayr qilish) huquqining ta'minlanishi majburiy bo'lishi kerak. Shuni ta'kidlash kerakki, kamida bir soat davom etadigan har kungi sayr etishdan foydalanish huquqi hatto ushlab

turilgan va (yoki) qamoqqa olingan gumon qilinuvchi va ayblanuvchilarga ham tegishlidir (O'zbekiston Respublikasining 2011-yil 29-sentabrdagi O'RQ-298-son "Jinoyat ishini yuritish chog'ida qamoqda saqlash to'g'risida"gi Qonuni 18-moddasi 1-qismining 12-xatboshisi).

Yurish (sayr qilish) uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasi ijro etilayotgan joyda bo'lishi sababli uning aniq muddati (davomiyligi) va harakatlanish chegarasi gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchiga sud tomonidan qo'yilgan cheklash va taqiqlarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi organ tomonidan belgilanishi kerak.

2. Muayyan shaxslar bilan aloqada bo'lishni taqiqlash to'g'risidagi masala, turar joyni tark etish masalasidan farqli o'laroq, sud tomonidan, birinchi navbatda, ushbu jinoyat ishining materiallari va uni obyektiv tergov qilish manfaatlaridan kelib chiqqan holda hal qilinishi kerak hamda uy qamog'ini ijro etish jarayonida gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasi ijro etilayotgan joyida bo'lganligi sababli sud tomonidan qo'yilgan ushbu cheklash va taqiqlarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi organga gumon qilinuvchi, ayblanuvchi uchun muloqot qilish taqiqlanishi kerak bo'lgan shaxslar doirasini kengaytirish g'oyasini kiritish yoki aksincha, ilgari muloqot qilish taqiqlangan shaxslar bilan muloqot qilish uchun ruxsat berilishi lozim. Muayyan shaxslar bilan aloqada bo'lish taqiq (cheklov)i boshqa taqiq (cheklov)lar singari faqat sud ajrimi bilan tayinlanishi va bunda uy qamog'i ehtiyot chorasi tanlangan shaxs aloqada bo'lmasligi lozim bo'lgan shaxslarning aniq ko'rsatilishi zarurati shuni taqozo etadiki, alohida holatlarda (masalan, jinoyat ishi doirasida yangi ochilgan holatlar yoxud shaxsga nisbatan uy qamog'i ehtiyot chorasi tayinlash haqida sud ajrimi chiqqanidan keyin aniqlangan va jinoyat ishiga jalb etilgan gumonlanuvchi, ayblanuvchilar yoxud jabrlanuvchilar va h.k.) uy qamog'idagi shaxs

aloqada bo'lishi taqiqlangan shaxslar doirasini kengaytirish masalasida ham sudga iltimosnoma kiritish yoki mustaqil hal etish masalasida huquqni qo'llovchi (amaliyotchi)lar o'rtasida yuridik jihatdan munozara yuzaga kelishi mumkin. Chunki bunday taqiq nafaqat uy qamog'ida bo'lgan gumon qilinuvchining, ayblanuvchining muloqot qilish huquqini, balki muloqot qilish mumkin bo'lgan shaxslarning ham muloqot qilish huquqini cheklaydi.

3. Xat-xabar olish va jo'natish yozishmalarini olish huquqidan butunlay mahrum qilish hatto hibsda saqlanayotgan gumon qilinuvchi va ayblanuvchilarga nisbatan ham tatbiq etilmaydi. Fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 242<sup>1</sup>-moddasi 5-qismi 2-bandi "muayyan shaxslardan xat-xabar olish va jo'natish" tarzida bayon etilishi maqsadga muvofiq, bundan asosiy maqsad uy qamog'ida saqlanayotgan shaxs ham xuddi ushlab turilgan yoki qamoqqa olingan shaxs kabi nazorat ostida, senzura-dan o'tkazilgan holatda bo'lsa-da, sud ajrimi bilan taqiqlanmagan ma'lum bir shaxslar (ota-onasi yoxud boshqa yaqinlari) bilan yozishmalar amalga oshirish huquqini ham shakllantirishdir.

4. Uy qamog'idagi shaxsga nisbatan o'rnatilgan xat-xabar olish va jo'natish, shuningdek, har qanday aloqa vositalaridan foydalanish va ular yordamida so'zlashuvlar olib borish taqiqlarini ijro etish O'zbekiston Respublikasining 2011-yil 29-sentabrdagi O'RQ-298-son "Jinoyat ishini yuritish chog'ida qamoqda saqlash to'g'risida"gi Qonuni doirasida pochta-telegraf jo'natmalarini tekshirish va olib qo'yish, telefon va boshqa suhbatlarni nazorat qilish va yozib olish, aloqalar to'g'risida ma'lumot olish masalalarini hal qilish kerak va mazkur qonunni ("Jinoyat ishini yuritish chog'ida qamoqda va uy qamog'ida saqlash to'g'risida" deb nomlab) yangi tahrirda qabul qilish lozim. Zero, O'zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksiga muvofiq, tergov



harakatlari bo'lgan pochta-telegraf jo'natmalarini xatlab qo'yish hamda telefonlar va boshqa telekommunikatsiya qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish, ular orqali uzatiladigan axborotni olish sud tomonidan belgilangan cheklovlar va taqiqlarga rioya etish ustidan nazoratni amalga oshirish uchun mo'ljallanmagan.

5. O'zbekiston Respublikasi JPK 242<sup>1</sup>-moddasining 5-qismida belgilangan taqiqlar (cheklovlar) qat'iy bo'lib, ulardan tashqari qo'shimcha taqiqlarni (cheklovlarni) qo'llash vakolati qonunda nazarda tutilmagan, shu bois uchastka nozirlari o'z vazifalarini amalga oshirish jarayonida ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'i qo'llangan shaxslarga yana boshqa taqiq (cheklov)lar yoxud majburiyatlar belgilashga haqli emas.

Yuqoridagilardan tashqari, amaliyotda uy qamog'i ehtiyot chorasi ijrosini nazorat qilishda maxsus elektron kuzatuv moslamalaridan foydalanishni keng yo'lga qo'yish, bunda qo'l va oyoq tasmalaridan foydalanishga,

ayniqsa, kuzatuv kameralarini ayblanuvchi, sudlanuvchi yashayotgan uyning kirish-chiqish joylariga o'rnatishga alohida e'tibor qaratilishini tavsiya etamiz.

Ta'kidlash joizki, elektron nazorat vositalari qanchalik foydali bo'lishiga qaramay, ularning samarasi ko'proq soz holatda bo'lishiga bog'liqdir. Buni inobatga olgan holda ayrim davlatlarda (Rossiya, Qozog'iston, Ozarbayjon, Belarus) ularni soz holatda saqlash majburiyati bevosita jinoyat-protsessual qonunchiligida belgilangan. Shu boisdan ham JPK 242<sup>1</sup>-moddasi 9-qismi dispozitsiyasi quyidagi tahrirda bayon etilishini taklif etamiz: "Zarur hollarda uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llangan shaxsga nisbatan elektron kuzatish vositalari qo'llanishi mumkin. Bunda shaxs ularning soz holda ishlashini ta'minlashi lozim, qurilmada bartaraf qilib bo'lmaydigan nosozlik yuzaga kelganda, bu haqda darhol nazoratni amalga oshiruvchi ichki ishlar xodimini yoki tergovchini xabardor qilishi shart".

## REFERENCES

1. Criminal Procedure Code of the Republic of Tajikistan. Available at: [www.medialaw.asia/](http://www.medialaw.asia/)
2. Criminal Procedure Code of Ukraine. Available at: [www.kalinovsky-k.narod.ru/zakon/](http://www.kalinovsky-k.narod.ru/zakon/)
3. Model Criminal Procedure Code for the CIS Member States. *Newsletter of the CIS Inter-Parliamentary Assembly*, 1996, no. 10.
4. To'laganova G.Z. Jinoyat protsessida protsessual majburlov va uning o'ziga xos xususiyatlari [Procedural coercion in criminal proceedings and its specific features]. PhD thesis. Tashkent, 2009, p. 178.
5. Aleksandrov A.S. Domashniy arest kak mera presecheniya v ugolovnom protsesse [House arrest as a measure of restraint in criminal proceedings]. *Criminal Law*, 2012, no. 2, p. 87.
6. Koloskova S.V., Fetishcheva L.M. Primeneniye domashnego aresta kak mery presecheniya v ugolovnom sudoproizvodstve Rossii [The use of house arrest as a measure of restraint in criminal proceedings in Russia]. *Legal Science and Law Enforcement Practice*, 2013, no. 4, p. 141.
7. Saltykov Ye.V. Domashniy arest v rossiyskom ugolovnom protsesse [House arrest in the Russian criminal process]. Abstract of PhD thesis. Ekaterinburg, 2007, p. 14.
8. D'yakonova L.V. Mera presecheniya – domashniy arest [Measure of restraint - house arrest]. *Legality*, 2010, no. 10, p. 9.
9. Ovchinnikov Yu.G. Domashniy arest kak mera presecheniya v ugolovnom protsesse [House arrest as a measure of restraint in criminal proceedings]. Abstract of PhD thesis. Omsk, 2006, p. 16.



10. Rusman G.S. Sudebnyy kontrol' za primeneniye mer presecheniya v vide zaklyucheniya pod strazhu, domashnego aresta [Judicial control over the application of preventive measures in the form of detention, house arrest]. Abstract of PhD thesis. Chelyabinsk, 2006, p. 10.

11. Silviu J. House Arrest as a Preventive Measure in Accordance with the New Criminal Procedure Code. Proceedings of the International conference. Knowledge-based organization, 2016, p. 22. DOI: 10.1515/kbo-2016-0058/

12. Akhminova Yu.Yu. Domashniy arest kak mera presecheniya: problemy izbraniya i realizatsii na stadii predvaritel'nogo rassledovaniya [House arrest as a measure of restraint: problems of election and implementation at the stage of preliminary investigation]. PhD thesis. St. Petersburg University of the Ministry of Internal Affairs of the Russian Federation, 2018, p. 119.

13. Tsokolova O.I., Kostyleva G.V., Muzhenskaya N.Ye., Danilova S.I. Domashniy arest i zalog kak mery presecheniya [House arrest and bail as a preventive measure]. SPS "Consultant Plus".

14. Ariza L.J., Mauersberger M., Arboleda F.L.T. Locked in the Home: A Critique of House Arrest as an Alternative to Imprisonment for Women Sentenced for Drug-Related Crimes. *The Prison Journal*, 2021, vol. 101 (3), pp. 286–305. DOI: 10.1177/00328855211010410/

15. Trunova L.K. Sovremennyye problemy primeneniya mer presecheniya v ugovnom protsesse [Modern problems of the application of preventive measures in criminal proceeding]. Doctor's degree dissertation. Moscow, 2002, p. 241.

16. Bykov V.M. Zakon o domashnem areste podozrevayemogo ili obvinyayemogo: nauchnyy kommentariy [The law on house arrest of a suspect or accused: scientific commentary]. *Administrative and Municipal Law*, 2012, no. 3, p. 18.

17. Bulatov B.B. Gosudarstvennoye prinuzhdeniye v ugovnom sudoproizvodstve [State coercion in criminal proceedings]. Omsk, 2003, p. 98.

18. Shamsutdinova R.Z. Protsessual'nyye osobennosti primeneniya mery presecheniya v vide domashnego aresta [Procedural features of the application of a measure of restraint in the form of house arrest]. *Bulletin of the Udmurt University*, 2013, no. 2, p. 201.

19. Coats K. Review of House Arrest, by K.A. Holt. *Bulletin of the Center for Children's Books*, 2015, vol. 69, no. 3, pp. 149. *Project MUSE*. DOI: 10.1353/bcc.2015.0842/

20. Murtazin R.M. Primneniye mer presecheniya v sudebnykh stadiyakh ugovnogo protsessa [Application of preventive measures in the judicial stages of the criminal process]. Abstract of PhD thesis. Chelyabinsk, 2012, p. 9.

# YURIDIK FANLAR AXBOROTNOMASI ВЕСТНИК ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК REVIEW OF LAW SCIENCES

Huquqiy ilmiy-amaliy jurnal

Правовой научно-практический журнал

Legal scientific-practical journal

**2023-yil 2-son**

VOLUME 7 / ISSUE 2 / 2023

DOI: 10.51788/TSUL.ROLS.2023.7.2.

**BOSH MUHARRIR:**

**Rustambekov Islambek Rustambekovich**

Toshkent davlat yuridik universiteti rektori v.v.b., y.f.d.,  
professor

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

**Xodjayev Baxshillo Kamolovich**

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, y.f.d.,  
dotsent

**Mas'ul muharrir:** O. Choriyev

**Muharrirlar:** Y. Yarmolik, F. Muhammadiyeva,  
Sh. Yusupova, Y. Mahmudov

**Musahhih:** M. Patillayeva

**Texnik muharrirlar:** U. Sapayev, D. Rajapov

**Tahririyat manzili:**

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.  
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

**Veb-sayt:** review.tsul.uz

**E-mail:** reviewjournal@tsul.uz

**Obuna indeksi:** 1385.

Jurnal 26.06.2023-yilda tipografiyaga

topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.

Shartli 17,7 b.t. Adadi: 100. Buyurtma raqami: 36.

TDYU tipografiyasida chop etildi.